




ISSN 2181-6833

PEDAGOGIK MAHORAT

2
2023



ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2-son (2023-yil, mart)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2023

<https://buxdu.uz>

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
DOLZARB MAVZU			
1.	<i>ЭЛОВ Зуёдулло Самторович</i>	Девиант хулк –атворли ўсмирлар муаммосининг илмий асослари ҳақида психологик ёндашувлар ва таҳлиллар	7
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA			
2.	<i>AMONOV Mirjon Namozovich</i>	Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning mazmun-mohiyati va xususiyatlari	12
3.	<i>ASRANBAYEVA Munajat Xalimjanovna</i>	Bolaning jamiyatga moslashuvida rivojlantiruvchi muhitning o‘rni	17
4.	<i>DILOVA Nargiza Gaybullayevna</i>	Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashning pedagogik texnologiyalari	23
5.	<i>DJURAYEVA Lola Rustamovna</i>	Tanqidiy fikrlash pedagogik kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning asosiy omili sifatida	27
6.	<i>IKRAMOV Amirbek Aminovich</i>	Ta‘limning raqamli transformatsiyasi -- barqaror rivojlanish omili sifatida (“Jismoniy tarbiya” fani misolida)	31
7.	<i>JUMAYEVA Mehribon Abduvohitovna</i>	Bo‘lajak o‘qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash pedagogik muammo sifatida	38
8.	<i>OMONOVA Nilufar Omon qizi</i>	Kooperativ yondashuvni rivojlantirishning o‘rni va ahamiyati	44
9.	<i>SADULLAYEV Ibrat Shuxratovich</i>	Sirtqi ta‘lim shaklining o‘ziga xos xususiyatlari	49
10.	<i>TILAVOV Muxtor Xasan o‘g‘li</i>	Rahbar kadrlarga psixologik xizmat ko‘rsatishning ijtimoiy-psixologik asoslari	54
11.	<i>TO‘YCHIYEVA Shoyista Jumaboyevna</i>	Kichik maktab yoshidagi bolalar emotsional sohasini o‘yin terapiyasi vositasida psixokorreksiyalash	59
12.	<i>TUYCHIYEV Ashurali</i>	O‘yinlar vositasida o‘quvchilarda intizomli munosabatni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon va unga ta‘sir etuvchi omillar	64
13.	<i>JO‘RAYEV Akmal Razzoqovich, XALLOQOVA Oygul Olimovna</i>	Zamonaviy yondashuvlar asosida texnologiya darslarni tashkil etish zarurati	69
14.	<i>XUDAYBERGANOV Shuhrat Shavkat o‘g‘li</i>	Akademik erkinlikning antropopedagogik asoslari	76
15.	<i>ZARIPOV Lochin Rustamovich</i>	Bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida kredit-modulli o‘qitishning ahamiyati	80
16.	<i>ИСМОИЛОВА Нуржахон Зухуриддиновна</i>	Талабаларда оптимистик позиция ва стрессга барқарорликнинг ўзаро боғлиқлиги	85
17.	<i>НАЗАРОВ Акмал Мардонович</i>	Илмий-инновацион фаолият психологик барқарорликни таъминлашнинг муҳим омили сифатида	89
18.	<i>НУРАБУЛЛАЕВ Танирберген Алламбергенович</i>	Инновацион етакчилик фаолиятининг ижтимоий-психологик табиати	93
МАКТАБГАЧА VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM			
19.	<i>РАҲМОНОВА Dilnavoz Muxitdinovna</i>	Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari mashg‘ulotlarda o‘yin innovatsion o‘qitish metodikasidan foydalanishi	98
20.	<i>НАМРОЙЕВ Shuhrat Eliyevich</i>	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashda “Ustodi avval” dan foydalanish imkoniyatlari	103
21.	<i>NE‘MATOVA Flora Baxtiyor qizi</i>	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish darslarida kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligi	108
22.	<i>НИЯЗОВА Гулбахор Давроновна</i>	Роль предметно-развивающей среды в организации повседневной жизни детей	115
23.	<i>FARMONOVA Shabon Muxamadovna</i>	Boshlang‘ich ta‘lim mazmunini yangilash va xalqaro baholash	122

SIRTQI TA'LIM SHAKLINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sadullayev Ibrat Shuxratovich,
Buxoro davlat universiteti
tayanch doktoranti
i.s.sadullaev@buxdu.uz

Ushbu maqolada sirtqi ta'lim shaklining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi. Sirtqi ta'lim shaklining huquqiy me'yoriy asoslari o'rganildi. Shuningdek, sirtqi ta'lim shaklida o'quv jarayonini tashkil qilish va masofadan turib o'qitish elementlaridan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqildi. Sirtqi ta'lim shaklida masofaviy ta'lim elementlaridan foydalanish imkoniyatlari ochib berildi.

Kalit so'zlar: sirtqi ta'lim shakli, maxsus sirtqi ta'lim shakli, kredit-modul tizimi, o'quv jarayoni, masofadan turib o'qitish, elektron ta'lim texnologiyalari.

СВОЕОБРАЗНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАОЧНОЙ ФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ

В данной статье проанализированы специфические особенности формы заочной формы обучения. Изучена правовая и нормативная база формы заочной формы обучения. Также были рассмотрены возможности организации учебного процесса в форме заочной формы обучения и с использованием элементов дистанционного обучения. Выявлены возможности использования элементов дистанционного обучения в форме заочной формы обучения.

Ключевые слова: Форма заочной формы обучения, специальная форма заочной формы обучения, кредитно-модульная система, учебный процесс, дистанционное обучение, электронные образовательные технологии.

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE FORM OF EXTERNAL EDUCATION

This article analyzes the specific features of the form of correspondence education. The legal and normative base of the form of correspondence education has been studied. Also, the possibilities of organizing the educational process in the form of correspondence courses and using elements of distance learning were considered. The possibilities of using the elements of distance learning in the form of correspondence education are revealed.

Key words: Correspondence form of education, special form of correspondence education, credit-module system, educational process, distance learning, electronic educational technologies.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayoni jadal sur'atlar bilan hayotimizga kirib kelayotgan bir davrda, o'z bilimi, kuchi, imkoniyatlariga tayanadigan, jamiyat, davlat manfaatlarini o'z manfaatlarini bilan uyg'un holda ko'radigan yetuk mutaxassis-kadrlarni tayyorlash zarurligi, mamlakatda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslari konsepsiyasini amalga oshirish sharoitida mustaqil, ijodiy fikrlovchi, zamonaviy fan-texnika va uning ishlash texnologiyasini mukammal egallagan, yetuk mutaxassislarni tayyorlash oliy ta'lim muassasalarida oldida turgan muhim vazifalardan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ 3775-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-iyuldagi “O'rta va O'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida sirtqi va kechki ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 411-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida mamlakatimiz ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilayapti, jumladan, Oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning kunduzgi, kechki, sirtqi (maxsus sirtqi), masofaviy shakllari kengaytirildi, ta'limning modul kredit tizimiga bosqichma-bosqich o'tib, OTM lari negizida pedagogika institutlarini tashkil qilindi [4].

Asosiy qism. Sirtqi ta'lim - ishlab chiqarishdan ajralmagan holda oliy va o'rta maxsus ma'lumot olish shakli. Kunduzgi ta'lim shaklidan talaba (o'quvchi)larning mustaqil o'qishi bilan farq qiladi. Sirtqi ta'lim muayyan sohadan ma'lumot olish shakli sifatida 19-asrning oxirlarida Germaniya, AQSH, Buyuk Britaniya va boshqa davlatlarda joriy etilgan bo'lib, ular dastlab eksternat shaklida texnik, harbiy va pedagogik ma'lumot olishga, shuningdek, savod o'rganishga yo'naltirilgan. 20-asrning 20-yillarida oliy ta'lim

muassasalarida sirtqi ta’lim kurslari, keyinchalik bo‘limlari va hozirgi kunda amal qilinayotgan shakllari paydo bo‘ldi.

O‘zbekistonda sirtqi ta’lim 1938-yildan tashkil etildi. Shu yili O‘rta Osiyo universitetida sirtqi bo‘lim tuzildi. Hozir sirtqi ta’lim o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalarida tashkil etilgan maxsus markaz, bo‘lim va fakultetlarda amalga oshiriladi. Unda ta’limning asosiy qismi (60- 70%) talaba (o‘quvchi)larning mustaqil bilim olishiga asoslangan bo‘lib, ular 1 yilda 2 marta kunduzgi ta’lim shaklida o‘quv fanlaridan ma’ruzalar tinglaydilar hamda semestrlar bo‘yicha imtihonlar topshiradilar.

O‘rta maxsus hamda oliy o‘quv yurtlarida sirtqi ta’lim o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlarining sirtqi fakultet (bo‘lim)larida olib boriladi. Darslik va dasturlar, odatda, kunduzgi va sirtqi ta’lim tizimida umumiy bo‘ladi. Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida (fakultet, bo‘limlarida) sirtqi ta’lim shaklini kredit-modul tizimi asosida o‘qitish qabul qilingan. Sirtqi ta’lim tizimining mazmuni, talabalar tomonidan o‘zlashtiriladigan bilimlarning majburiy minimal darajalari, shuningdek, kirish imtihonlari kunduzgi ta’lim shakli bilan bir xil bo‘ladi. Ta’limning sirtqi va kunduzgi bo‘limlarini bitirgan mutaxassislar uchun bir xil namunadagi diplom beriladi. Sirtqi ta’limda qishloq xo‘jaligi, iqtisodiyot, aloqa va ayniqsa, pedagogika bo‘yicha eng ko‘p mutaxassis tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan. Sirtqi ta’lim shakli sog‘liqni saqlash tizimi uchun mutaxassislar tayyorlashda qo‘llanilmaydi.

Sirtqi ta’lim bo‘yicha professional ta’lim muassasalariga tayanch umumiy o‘rta ta’lim, oliy o‘quv yurtlariga professional ta’lim muassasalari, akademik litsey va umumiy o‘rta ta’lim maktablarini bitirganlar, yoshlaridan qat’i nazar qabul qilinadilar.

Sirtqi shaklda - umumiy o‘rta (10-11-sinflar negizida), o‘rta maxsus, kasb-hunar ma’lumoti to‘g‘risidagi tegishli hujjatga ega bo‘lgan va test sinovlaridan (kirish imtihonlaridan) muvaffaqiyatli o‘tgan;

Maxsus sirtqi shaklda - faqat tegishli yoki turdosh ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘rta maxsus, kasb-hunar ma’lumotiga va ta’lim yo‘nalishiga muvofiq soha, kasb, lavozimlarda kamida uch yillik amaliy ish stajiga (pedagogika yo‘nalishlari uchun pedagogik stajga) ega bo‘lgan, tegishli vazirliklar va idoralar tomonidan berilgan tavsiyanomaga ega, test sinovlaridan (kirish imtihonlari yoki kasbiy suhbatdan) muvaffaqiyatli o‘tgan;

Ikkinchi va undan keyingi oliy ma’lumot berishning sirtqi shaklda - oliy ma’lumotga ega bo‘lgan (agar xorijiy oliy ta’lim muassasasini tugatgan bo‘lsa, oliy ma’lumot to‘g‘risidagi hujjati belgilangan tartibda tan olingan (nostrifikatsiya qilishgan) bo‘lishi kerak) va test sinovlaridan (kirish imtihonlaridan yoki kasbiy suhbatdan) muvaffaqiyatli o‘tgan abituriyentlar hisobidan amalga oshiriladi.

O‘zbekistonda 2000/2001-o‘quv yilidan boshlab maxsus sirtqi ta’lim shakli joriy etilgan bo‘lib, unga o‘rta maxsus ma’lumot hamda 3 yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan pedagog xodimlar mos yo‘nalishlar bo‘yicha qabul qilinadilar. O‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlarida sirtqi ta’lim olayotganlar uchun ularning asosiy ish joylaridan belgilangan tartibda imtiyozlar beriladi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra 2002/2003-o‘quv yili O‘zbekistondagi 45 oliy ta’lim muassasasida 61 ming talaba, o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida 73,7 ming o‘quvchi sirtqi ta’lim olgan. O‘zbekistonda 1998-yilgacha umumiy o‘rta ta’lim tizimida, 2002-yilgacha aspirantura tizimida ham sirtqi ta’lim mavjud bo‘lgan.

Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’limda masofadan turib o‘qitish talabalarining asosiy ish joyidan ajralmagan holda o‘quv rejasidagi barcha fan dasturlarida belgilangan bilimlarni mustaqil masofadan turib o‘zlashtirish asosida amalga oshirilishi mumkin. Masofadan turib o‘qitish onlayn (masofadan turib real vaqt rejimida videoma’ruzalar, konsultatsiyalar, nazorat turlarini o‘tkazish) va oflayn (masofadan turib o‘qitish tizimidagi tegishli o‘quv-metodik resurslarni mustaqil ravishda o‘zlashtirish) rejimlarida tashkil etiladi.

Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’limda ta’lim faoliyatini amalga oshiruvchi kafedralar professor-o‘qituvchilari masofadan turib o‘qitishda o‘quv materiallari, topshiriqlar va maslahat-konsultativ ishlarni oliy ta’lim muassasasi saytidagi "Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’lim" sahifasiga joylashtiradi va ularning bajarilishini nazorat qilib boradi [5].

Sirtqi ta’lim shakli mehnat faoliyatini o‘qish bilan birga olib borishni istagan talabalar uchun imkoniyat bo‘lib, bu oliy ma’lumot olish va bilimlarni amaliyotda parallel qo‘llash uchun ajoyib sharoit yaratib beradi. Talabalar ayni damda o‘zlarining kasbiy mahoratlarini oshiradilar, o‘z loyihalari portfelini shakllantiradi hamda o‘qigan mutaxassisligi bo‘yicha qimmatli tajribaga ega bo‘lishadi. Bu jarayonda materialning asosiy qismini mustaqil o‘rganish kerak, shuning uchun vaqtni boshqarish qobiliyati sirtqi ta’lim shaklida tehsil oluvchi talabalar uchun zarur. Ammo kunduzgi shaklda emas, sirtqi shaklda o‘qishda qiyinchiliklar bo‘lishi mumkin. Masalan, yaqin atrofda boshqaradigan va nazorat qiladigan o‘qituvchi yo‘q. Ta’limning bu shakli maqsadli odamlarga mos keladi va agar talabalar faqat diplom olish uchun uchun o‘qishsa, bu o‘z navbatida jamiyat rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasining tegishli organlari qaror qabul qilib, 2004-yilda sirtqi ta’lim shaklida talabalar tayyorlashni to‘xtatib qo‘ygan edi. Buning asosiy sababi ta’lim sifatining ta’minlanmaganligidir. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi

bilan yangi ilg‘or usullar, sirtqi ta‘lim talabalarini rag‘batlantirish va nazorat qilish usullari paydo bo‘ldi. Bu holat O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida e‘tirof etildi va 2017-yildan boshlab oliy o‘quv yurtlarida sirtqi bo‘limlar faoliyatini bosqichma-bosqich tiklay boshladi [7]. 2023/2024-o‘quv yili qabulidan boshlab pedagogik kadrlar tayyorlovchi Oliy ta‘lim muassasalarida 14 ta ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha sirtqi ta‘lim shakliga qabul amalga oshirilmaydi. Bu haqda O‘zbekiston Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ–289 sonli "Pedagogik ta‘lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan. O‘zbekistonda sirtqi ta‘limning quyidagi shakllari amalga oshiriladi:

1. Sirtqi ta‘lim (kamida 5 yil).
2. Maxsus sirtqi ta‘lim (kamida 3 yil).
3. Ikkinchi va undan keyingi oliy ma‘lumot olishning sirtqi shakli (kamida 3 yil).

Umumiy o‘rta (10-11-sinflar) va o‘rta maxsus ta‘lim negizida OTM larining sirtqi ta‘lim shakli bakalavriyatiga hujjat topshirishin mumkin. Maxsus sirtqi shakliga kirish uchun mutaxassislik bo‘yicha 3 yillik amaliy tajriba va ish joyidan tavsiyanoma hamda kirish testlaridan o‘tish yoki suhbatdan o‘tish kerak. Oliy ma‘lumotli abituriyentlar ikkinchi va undan keyingi oliy ma‘lumot olishning sirtqi shakliga qabul qilinadi. Qabul jarayonlari professional suhbat yoki kirish imtihonlari shaklida amalga oshiriladi. Bunda ta‘lim jarayoni abituriyentlar hisobidan (Davlat qabul komissiyasi belgilagan imtiyozlar bundan mustasno) amalga oshiriladi. Sirtqi va maxsus sirtqi varaqalar talabalariga talabalik kartasi bepul beriladi. Universitetlar talabalarni o‘quv adabiyotlari va materiallari bilan ta‘minlaydi, bilim olishlari uchun sharoit yaratadi. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta‘lim shaklidan kunduzgi bo‘limga va sirtqi (maxsus sirtqi) ta‘limning bir ta‘lim yo‘nalishidan boshqasiga o‘tkazishga ruxsat etiladi. Sirtqi bo‘limga o‘qishga kirgan talaba o‘quv yili boshida 10 kunlik yo‘naltiruvchi mashg‘ulotdan o‘tadi. Sessiya odatda sentyabr-oktyabr oylariga to‘g‘ri keladi. Bu talabaning universitet, o‘qituvchilar, fanlar bilan tanishishi uchun kerak. Talabalar seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida qatnashadi, uslubiy ko‘rsatmalar oladi. O‘quv jarayoni davlat ta‘lim standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan o‘quv reja va dasturlari asosida tashkil etiladi. Mavzularni olgach, talabalar o‘qishni boshlaydilar: ular materialni o‘rganadilar, test topshiriqlarini bajaradilar, nazorat savollariga javob beradilar, kurs va loyiha ishlarini tayyorlaydilar. O‘qituvchilar topshiriqlarning bajarilishini nazorat qiladilar va oraliq baholar qo‘yadilar. Imtixon semester yakunida (odatda yiliga 2 marta - qish va yozda) talabalar fanlar bo‘yicha yakuniy imtihonlar topshiradilar. Agar talabaning akademik qarzlari bo‘lsa va ularni belgilangan muddatda tuzatmasa, natijada (bunda istisno holatlar - kasallik, akademik ta‘til va hokazo sabablar) o‘qishdan chetlatish uchun asos bo‘ladi. Oxirgi o‘quv yilida talabalar tomonidan yakuniy malaka ishlarini tayyorlanadi va yakuniy attestatsiyadan o‘tadilar.

Sirtqi (maxsus sirtqi) ta‘lim shaklida o‘quv jarayonini tashkil qilish

Sirtqi (maxsus sirtqi) ta‘limda o‘quv jarayoni ta‘lim sohalarining davlat ta‘lim standartlari va tegishli ta‘lim yo‘nalishlari malaka talablari asosida tayyorlangan kunduzgi ta‘lim uchun tasdiqlangan o‘quv rejasi va fan dasturlari asosida tashkil etiladi. Ta‘lim yo‘nalishlarining ishchi o‘quv rejasi va fan dasturlari belgilangan tartibda tasdiqlangan o‘quv rejasi va fan dasturlari asosida ishlab chiqiladi hamda tayanch oliy ta‘lim muassasalari bilan kelishgan holda tasdiqlanadi. O‘quv jarayoni jadvali belgilangan tartibda tasdiqlangan o‘quv rejasi asosida ishlab chiqilgan ishchi o‘quv rejasida qayd etiladi. Talabalar uchun o‘qishga qabul qilingan o‘quv yili boshida (odatda, sentyabr-oktyabr oylarida) bevosita oliy ta‘lim muassasasida 10 kunlik o‘quv jarayoni bilan dastlabki tanishtiruv hamda semestr davomida o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha qisqacha (ishchi o‘quv rejasida belgilangan hajmda) ma‘ruza, amaliy, laboratoriya va seminar mashg‘ulotlari o‘tkaziladi. Talabalarga mavzular bo‘yicha topshiriqlar va ularni bajarish yuzasidan metodik ko‘rsatmalar beriladi. O‘quv sessiyasigacha bo‘lgan muddatda sirtqi (maxsus sirtqi) ta‘limda o‘qish mustaqil, jumladan, masofadan turib ta‘lim olish shaklida amalga oshiriladi. Bunda talaba metodik ko‘rsatmalardan foydalangan holda ishchi o‘quv rejada semestr uchun rejalashtirilgan fanlarning dasturlarida belgilangan mavzularni mustaqil o‘zlashtiradi. Talaba fan bo‘yicha topshiriqlarni bajargandan so‘ng, uni fan o‘qituvchisiga belgilangan muddatlarda (odatda, masofadan turib Internet tarmog‘i orqali) yuboradi hamda qayddan o‘tkazadi. Fan o‘qituvchisi talaba yuborgan materiallarni tekshirib, oraliq ishi sifatida baholaydi. Fan o‘qituvchisi mavzular bo‘yicha navbatdagi topshiriqlar va ko‘rsatmalarni yuborishi, shuningdek, onlayn rejimida o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazishi mumkin. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta‘lim talabasi har bir semestr davomida bir marta oliy ta‘lim muassasasiga o‘quv sessiyasiga chaqiriladi. Buning uchun unga o‘quv sessiyasi boshlanishiga qadar (kamida 10 kun oldin) belgilangan shaklda xabarnoma yuboriladi [2].

O‘quv sessiyasi davomida amalga oshiriladigan ishlar:

- ✓ talaba semestr uchun berilgan topshiriqlarni himoya qiladi. Fan bo‘yicha barcha topshiriqlar ijobiy baholangan taqdirda talabaga fan bo‘yicha yakuniy baholashga kirish huquqi beriladi;
- ✓ fanlar bo‘yicha yakuniy baholashlar o‘tkaziladi;

✓ navbatdagi semestr davomida o‘qitiladigan fanlar qisqacha (ishchi o‘quv rejasida belgilangan hajmda) ma’ruza, amaliy, laboratoriya va seminar mashg‘ulotlari orqali tanishtiriladi. Ushbu mashg‘ulotlar talabaga navbatdagi semestr davomida fanlarni o‘zlashtirishi va topshiriqlarni bajarishi uchun asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar bilan ishlash usullari va texnologiyalarini o‘rgatishga qaratiladi. Mavzular bo‘yicha topshiriqlar bilan ularni bajarish yuzasidan metodik ko‘rsatmalar beriladi.

✓ O‘quv sessiyasi davomida o‘tkaziladigan ma’ruza, amaliy, laboratoriya va seminar mashg‘ulotlarida ilg‘or usul va texnologiyalardan (jumladan, muammoli, interaktiv, ijodiy faoliyatni rivojlantirish, ijodiy vazifalarni guruh bo‘lib hal etish, hamkorlik pedagogikasi, tabaqalashtirish, individuallashtirish va boshqalardan) foydalaniladi.

✓ Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’limda talaba tasdiqlangan ishchi o‘quv rejasidagi barcha o‘quv fanlarini o‘zlashtirishi shart. Talabalar bilimni baholash qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’limda oraliq va yakuniy baholash turlari joriy qilinadi. Oraliq baholashning mazmuni, uni bajarish usul va tartiblari hamda soni (bir o‘quv semestri davomida ikki martagacha) har bir fan bo‘yicha sirtqi (maxsus sirtqi) ta’lim uchun tayyorlangan ishchi fan dasturlarida belgilab beriladi va quyidagi mustaqil ish turlaridan iborat bo‘ladi:

- kurs (loyihasi) ishi;
- nazorat savollari va topshiriqlari;
- test-sinov savollari;
- keyslar, mashqlar, misol va masalalar;
- tajriba natijalari;
- ishlab chiqarish muammolarini hal etishga yo‘naltirilgan maxsus metodik ishlanmalar va tavsiyalar;
- hisob-jadval ishlari va boshqalar.

Oraliq baholash masofaviy aloqa orqali onlayn rejimida o‘tkazilishi ham mumkin.

Sirtqi ta’lim shaklida masofadan turib o‘qitish elementlaridan foydalanish

Zamonaviy ta’lim sohasi ta’limning kunduzgi, sirtqi, kechki, sirtqi va masofaviy ta’lim kabi bir necha shakllarini taklif etadi. Masofadan turib o‘qitish talabalarning asosiy ish joyidan ajralmagan holda o‘quv rejasidagi barcha fan dasturlarida belgilangan bilimlarni mustaqil masofadan turib o‘zlashtirish asosida amalga oshirilishi mumkin. Bunda o‘qitish onlayn (masofadan turib real vaqt rejimida videoma’ruzalar, konsultatsiyalar, nazorat turlarini o‘tkazish) va oflayn (masofadan turib o‘qitish tizimidagi tegishli o‘quv-metodik resurslarni mustaqil ravishda o‘zlashtirish) rejimlarida tashkil etiladi. Masofadan turib o‘qitishning texnik ta’minoti oliy ta’lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladi. Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’limda ta’lim faoliyatini amalga oshiruvchi kafedralar professor-o‘qituvchilari masofadan turib o‘qitishda o‘quv materiallari, topshiriqlar va maslahat-konsultativ ishlarni oliy ta’lim muassasasi saytidagi “Sirtqi (maxsus sirtqi) ta’lim” sahifasiga joylashtiradi va ularning bajarilishini nazorat qilib boradi. Masofadan turib o‘qitish elementlaridan foydalangan holda ta’lim beruvchi professor-o‘qituvchilar uchun o‘quv yuklamasi belgilangan tartibda belgilanadi.

Hozirgi kunda dunyo OTM lari tomonidan ishlatiladigan eng mashhur tizimlari mavjud, ular oliy o‘quv yurtlari ehtiyojlariga to‘liq mos keladigan, to‘liq jarayon uchun zarur bo‘lgan imkoniyatlarni ta’minlaydigan va masofadan turib o‘qitish elementlarini o‘zida mujassamlashtirgan universitet tizimlari uchun moslashtirilgan platformalardir [3].

Masofadan turib o‘qitish elementlariga ega platformalar va ularning xususiyatlari:

✓ Keng xususiyashtirish imkoniyatlari ega “**Moodle**” platformasi. Faqat bir serverda o‘rnatiladi. O‘z funksional imkoniyatlarni kengaytirish uchun ko‘plab pluginlar mavjud. Ma’muriyat uchun veb-ishlab chiqish qobiliyatlarini talab qiladi.

✓ “**iSpring**” korporativ sektor uchun platforma. Barcha turdagi o‘quv materiallari, veb-seminarlar, batafsil statistika va ofis hujjatlari va videofilmlaridan kurslar va simulyatorlarni tezda yaratishga imkon beruvchi kurs muharriri uchun yordamchi tizimdir.

✓ “**WebTutor**” modulli HRM platformasi, bu nafaqat kadrlar tayyorlashni, balki barcha kadrlar bilan ishlash jarayonlarini tashkil etishga imkon beradi: kompetensiyani baholash, ishga qabul qilish va dastlabki mashg‘ulotlarni avtomatlashtirish imkonini yaratuvchi keng imkoniyatlarga ega bo‘lgan murakkab tizim hisoblanadi.

✓ “**Teachbase**” Cloud ga asoslangan o‘quv platformasi. O‘rnatilgan kurs muharriri mavjud – kurs sahifasi Tilda-da odatdagi ochilish sahifasi singari qurilgan.

✓ “**GetCourse**” info-biznesmenlar orasida eng mashhur platforma. Onlayn seminarlar, ko‘plab to‘lov tizimlari bilan integratsiya va o‘quv kurslarni o‘g‘irlashdan himoya qilish vazifalari bor.

✓ **WordPress** uchun oddiy veb-sayt asosida o‘quv portalini yaratishga imkon beruvchi “**Memberlux**” plagini. Bir martalik to‘lov mavjud bo‘lib, boshlang‘ich ma‘lumot sifatida ta‘lim muassasalariga mos keladi [6].

Hozirgi kunda ta‘limning elektron shakli jadal rivojlanib borayotganligining guvohi bo‘lyapmiz. Bu holat elektron ta‘lim tizimi va ko‘plab boshqa ishlab chiqarish vositalarining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Elektron ta‘lim tizimi ta‘lim oluvchiga o‘quv materiallari va ulardan olingan bilimlarni test topshiriqlaridan foydalanib, tekshirish imkoniyatini taqdim etadi. Zamonaviy talablarga muvofiq, o‘quv jarayoni murakkablashib borayotgan bir vaqtda, ta‘limda mobil vositalari, internet tarmog‘i, masofadan turib o‘qitish vositalaridan foydalanish, o‘zlashtirishni osonlashtirib, qiziqarlilik jihatini oshirayapti.

Elektron ta‘lim texnologiyasining rivoji elektron o‘qitish tizimida ta‘lim strategiyasining tuzilishi va har bir o‘quvchi uchun o‘quv materiallarini yakka tartibda taqdim etish kabi imkoniyatlarni beradi. Shunga muvofiq ishlab chiqarishga sarf-xarajatlar, doimiy talablarning o‘sishi va elektron ta‘lim tizimini amalga oshirishda zaruriy baholash va boshqarish sifatleri shakllandi. Hozirgi avtomatlashtirilgan ta‘lim tizimi sifatini baholash uslublari va o‘qish jarayoni natijalari nuqtayi nazaridan, o‘qitish tizimlarini baholashga, shuningdek, paydo bo‘lgan va elektron ta‘lim tizimi hayot siklining turli bosqichlari sifatini boshqarishga yetarli darajada imkon bermaydi.

Hozirgi davr talabi, innovatsion jarayonlar va axborot texnologiyalarni barcha sohalarga jumladan ta‘lim sohasiga ham kirib kelishi, ta‘lim-fan-ishlab chiqarish integratsiyasining rivojlanishi professor-o‘qituvchilar o‘z kasbini chet el mutaxassislari bilan hamkorlikda rivojlantirish, ularda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish madaniyatni takomillashtirish, uni pedagogik nuqtayi nazardan tadqiq qilish, ilmiy-metodik asoslash muammosi dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Xulosa. Hududlarda yangi oliy ta‘lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi, kechki va masofaviy ta‘lim shakllarining ochilishi, oliy ta‘lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo‘nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi. O‘qitishning barcha xususiyatlari mujassamlashgan ishlanmaning uslubi va o‘rganilayotgan fan bo‘yicha o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlarini baholashda darajalarga ajratish tizimining ishlashi hamda o‘lchov xususiyatlarini aniqlashtirish zarurati yuzaga kelishi ushbu mavzuning dolzarbligini yana bir marta oshiradi. Shu sababli ham sirtqi ta‘lim shaklida elektron ta‘lim tizimi sifatini baholash mezonlari va usullari, o‘qitish jarayoni sifatini boshqarishni amalga oshirishga imkon beruvchi foydalanish bosqichlarini ishlab chiqish va joriy etish zarur.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi 2017-yil 20-sentabr <https://strategy.uz/index.php?news=615&lang=uz>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.06.2018 yildagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori, <https://lex.uz/uz/docs/-3765586>
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.07.2022 yildagi 411-son “O‘rta va o‘rta maxsus professional ta‘lim muassasalarida sirtqi va kechki ta‘limni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori, <https://lex.uz/uz/docs/-6135357>
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.11.2017 yildagi 930-son “Oliy ta‘lim muassasasida sirtqi (maxsus sirtqi) va kechki (smenali) ta‘limni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida” Qarori, <https://lex.uz/docs/-3420313>
5. Sadullayev I. Sh. Sirtqi ta‘limda talabalarning o‘zlashtirish monitoringini olib borish (“Plikers” texnologiyasi misolida). //Pedagogik mahorat Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 3-SON (2020-yil, iyun)
6. Yusupova Sh.M. Oliy ta‘lim muassasalarida masofaviy ta‘limni o‘qitish tizimlari va amaliy imkoniyatlari. //Academic research in educational scienceS Scientific Journal Impact Factor 2021: 5.723 VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2021 ISSN: 2181-1385
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.11.2017 yildagi 930-son “Oliy ta‘lim muassasasida sirtqi (maxsus sirtqi) va kechki (smenali) ta‘limni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida” Qarori, <https://lex.uz/docs/-3420313>
8. <https://postupi.uz/news/abiturientu/zaochnoe-obuchenie-v-uzbekistane>